

BULDURUQLAR TURKUMI

Abdulxafizov X.A.

E-mail: xalilullohabdulxafizov@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti

Biolgiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu tezisda bulduruqlar turkumining yer yuzida tarqalishi hamda o'ziga xos jihatlari to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Abstract: This thesis presents information about the spread of the bulduruq family on the earth and its specific aspects.

Kalit so'zlar: Bulduruqlar, kaptarsimonlar, pteroles alchata, pteroles orientalis, Afrika, Osiyo, O'zbekiston, Eron, Afgoniston, Janubiy Turkmaniston, shuvoq, pat, barmoqlar, jo'jalar, jig'ildon, Qizil kitob

Keywords: beetles, pigeons, pteroles alchata, pteroles orientalis, Africa, Asia, Uzbekistan, Iran, Afghanistan, South Turkmenistan, wormwood, feather, fingers, chicks, chirping, Red book.

Qushlarning tanasi zich va asosan yumaloq shaklda bo'ladi. Boshi unchalik katta emas, bo'yni uzun va harakatchan. Oldingi oyoqlari, ya'ni qanotlari tinch turganda tanasi yoniga yig'ilgan bo'ladi. Qushlarning pat va parlari gavdasiga suyri shaklini beradi. Qushlar anatomik tuzilishi jihatidan o'zining bevosita ajdodlariga, ya'ni sudralib yuruvchilarga juda yaqin turadi. Qushlarning terisi sudralib yuruvchilarniki singari quruq, deyarli teri bezlari bo'lmaydi. Qushlarning hajmi va massasi ham turlicha. Masalan Bulduruqlar uzunligi 22-40sm, bulduruqlar massasi 300-500 g keladi. Tashqi ko'rinishi kaptarlarga o'xshashydi. Kaptarlardan farqli o'laroq tog'larda yashamasdan, balki sahro-cho'llarida yashaydi. Indi yerga quradi.

Bulduruqlar (Bteroclitidae) kaptarsimonlar turkumi oilasi. Bulduruqlar asl bulduruqlar va suv bulduruqlari urug'lariga bo'linadi. Asl bulduruqlarning o'n to'rt turi, suv bulduruqlarining esa oq bovor (Pteroles alchata) va qora bovor (Pteroles orientalis) degan 2 turi bor.

Bulduruqlar kenja turkumining bitta bulduruqlar (Pterocletidae) oilasi bo'lib, bu oilaning 16 turi bor. MDHi Afrikaning shimoliy qismida, Ispaniya va Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda dasht va cho'llardagi suvga yaqin yerlarda yashaydi. Qishlash uchun sentabr va oktabr oylarida Pokiston, Eron, Afgoniston hamda Janubiy Turkmanistonga uchib ketib, erta bahor (mart)da yana uchib keladi. Oq bovor tanasining uzunligi 35—37 sm, qora bovurniki 33—35 sm. Ikkala turning hayot kechirish tarzi o'xshaydi. Bulduruqlar urchish davrida (mart oyida) juft hosil qiladi. Ko'pincha 3 ta, ba'zan 2 ta tuxum qo'yadi. Uyasi shuvoq kabi o'simliklar ostida soya

joylarda yasalgan kichikroq chuqurchadan iborat. Tuxumini urg'ochi va erkak bulduruqlar navbatlashib bir oycha bosadi. Tuxum bosish va jo'ja boqishda nari ham qatnashadi. Olabula pati jo'jalarining dushmanlardan saqlanishiga yordam beradi. Jo'jalari iyunda uchirma bo'ladi. Avgust oxirlarida bulduruqlarning uchib ketayotgan galalarini uchratish mumkin. Dasht va cho'llarda Qora bovor (*Pterocles alchata*) va Oq bovor (*Pterocles orientalis*) hamda o'ziga xos tuzilgan suv buldurug'i (*Syrhaptis paradoxus*) yashaydi. Suv buldurug'ining barmoqlari pat bilan qoplangan va serbar bo'lib, bir-biri bilan qisman qo'shilib ketgan hamda tovonga o'xshaydi. Suv buldurug'ining orqa barmog'i bo'lmaydi. Suv buldurug'i Osiyo cho'llardan MDHning Yevropa qismiga, hamda g'arbiy Yevropaga ko'plab uchib o'tadi. Oziqasini yerdan topadi o'simliklarning donlari, bahorda esa kurtak va yosh novdalari bilan oziqlanadi. Kuniga ikki mahal (choshgoh va peshinda) gala bo'lib, suv ichishga boradi. Jig'ildonida suv olib kelib jo'jalariga ichiradi. Bulduruqlar azaldan ovlanadi. Go'shti mazali. Ko'plab ovlanishi natijasida juda kamayib ketgan. Oq bovor O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan. Bulduruqlar juda tez uchuvchi qushlar hisoblanadi. Qanotlari uzun, o'tkir va uchli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. "Umurtqalilar zoologiyasi", J.L.Laxanov
3. "Umurtqalilar zoologiyasi", S.Dadayev, S.To'ychiyev, P.Haydarova
4. <https://uztext.com/38089-text.html>